

**SHE’RIYATDA OQ VA QORA LEKSEMALARING USLUBIY VAZIFALARI  
XUSUSIDA**

**Jiyanova Nazokat Eshquvvatovna,**  
*O’zDJTU O’zbek tili va adabiyoti kafedrasini  
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o’zbek she’riyatida qo’llanilgan oq va qora leksemalarning uslubiy vazifalari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** uslub, leksema, so‘z, vazifa, xususiyat, konnotatsiya, xoslanish, ma’no, ifoda, tushuncha, birlilik, salbiy, ijobiy, mazmun.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются методологические функции лексем «белый» и «черный», используемых в узбекской поэзии.

**Ключевые слова:** стиль, лексема, слово, функция, признак, коннотация, характеристика, значение, выражение, понятие, единица, негатив, позитив, содержание.

**Abstract:** This article discusses the methodological functions of white and black lexemes used in Uzbek poetry.

**Keywords:** style, lexeme, word, function, feature, connotation, characteristic, meaning, expression, concept, unit, negative, positive, content.

“O’zbek tilining izohli lug‘ati”da oq so‘ziga shunday ta’rif berilgan: Qor, sut, paxta rangidagi; oq yuzli, oq badan, oq bilak; aroq, podsho tarafini oluvchi; kontrrevolyusion; oxirgi, toza (qo’ldan chiqarish yoki pardozlash uchun qilingan oxirgi ish haqida); gunohsiz, sha’niga dog‘ tushmagan kishi; oq-qorani tanigan; oqargan, tuk, mo‘y; soch va soqolning oqargan qismi; ko‘zning qorachig‘ini o‘ragan tiniq rangdagi qism; ba’zi kasallik natijasida ko‘z qorachig‘ida paydo bo‘ladigan oqish dog‘, parda; tuxumning oqsil moddasi<sup>1</sup>. Bulardan tashqari, oq yo‘l tilamoq, oq kiymoq (olamdan o‘tgan yaqinining hurmati uchun kiyiladigan kiyim), oq o‘ramoq (ikki yoshni unashtirish belgisi), oq ko‘ngil, oq oltin, oq fotiha, oq choy; oq qilmoq (o‘z farzandini la’natlamoq, qarg‘amoq) kabi ma’nolarda ham qo’llaniladi.

Bilamizki, qadimdan oq rang yaxshilik, yaxshi xususiyatlar ramzi sifatida qo’llanilgan: **oq ko‘ngil, oq fotiha, oq yo‘l** kabi. Internet manbalarida oq so‘ziga nisbatan turlicha izohlar ham berilgan. Masalan, ranglar psixologiyasiga ko‘ra oq rang poklik, aybsizlikni anglatishi va qor, bo‘r, sut kabi narsalarning rangi ekanligi ta’kidlangan<sup>2</sup>. Ba’zi manbalarda esa qadimgi Misr va qadimgi Rimda ruhoniylar poklik ramzi sifatida oq libos kiyishgan, rimliklar esa fuqarolik ramzi sifatida oq kiyishgan. O‘rta asrlarda va uyg‘onish davrida oq yagona shoh poklikni, oq

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва, 1981 йил 1 том, 557-бет.

<sup>2</sup> <https://sinaps.uz/bil//5550/>

qo‘zichoq qurbanlik va poklikni anglatgan. Shuningdek, Yunon va Rim ibodatxonalari oq marmar bilan qoplangan. Yevropa va Qo‘shma Shtatlarda esa oq rang mukammallik, yaxshilik, halollik, poklik, yangilik, betaraflik kabi ma’nolarda ifodalangan<sup>3</sup>.

Oq rang Islomda Makkada haj yoki ehrom ziyorati paytida kiyiladigan kiyim ma’nosida ham qo‘llaniladi. Chunki bu rang islomda diniy va siyosiy ramz sifatida uzoq tarixga ega bo‘lib, an’anaga ko‘ra Muhammad payg ‘ambarlar mansub bo‘lgan Qurayish qabilasiga tegishli oq bayroqdan boshlanishi haqida ham ma’lumotlar mavjud<sup>4</sup>. Bu kabi ma’lumotlarni ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Lekin oq rangdan salbiy munosabatlarni ifodalashda ham foydalanilgan: “Oq qilmoq” birikmasida “o‘z farzandidan voz kechmoq, qarg‘ish” ma’nosini ifodalaydi: *Sirdaryoda yashayotganimda, kunlarning birida ota-onasi oq qilgan bir qizni uchratib, uyimga boshlab keldim* (A.Qorjovov). “Oq bilak oyim” birikmasida esa uch xil ma’no nozikligi mavjud. Biri chiroyli, kelishgan, o‘qimishli, ziyoli va o‘ziga qarab yuradigan orastali ayol ma’nosida, ikkinchisi tannoz, ishlamaydigan, doimo ko‘zgu oldidan ketmaydigan, faqat o‘zini yaxshi ko‘rib, o‘zi uchun yashaydigan ayol ma’nosida va uchinchisi esa nasl, nasaf ma’nosida ham qo‘llanadi:

*Oq bilak oyim Toshkentlik,*

*Tomog ‘ini tagi marjonlik.*

*O‘ynamaydi, kulmaydi,*

*Akasining qadrin bilmaydi.* (M.Y.)

Bunday qo‘llanish oq so‘zining uslubiy vazifasi hisoblanadi.

Shoir Muhammad Yusuf bir o‘rinda oq so‘zidan quyidagicha foydalangan:

*Har kimning ham sochlariqa oq tushsin,*

*Ajin tushsin yuzlariga, dog‘ tushsin.*

*Har kimning ham quvvat ketib belidan,*

*Qo‘llariga aso – bir tayoq tushsin.* (M.Y.)

Oq tushsin birikmasi ulg‘aysin, keksalik gashtini sursin, umri uzoq bo‘lsin ma’nosida qo‘llangan. Shoir yana bir o‘rinda shunday yozadi:

*...Millatlar;*

*Elatlar.*

*Oq tan, qora tan.*

*Hammasi.*

<sup>3</sup> Eva Heller(2000), *Psychologie de la couleur — effets ets symboliques*, pp.130-46.

<sup>4</sup> Eva Heller (2000), *Psychologie de la couleur — effets ets symboliques*, p. 137.<https://wikimediafoundation.org>.

*Bir tan. (M.Y.)*

Keltirilgan misoldagi oq tan, qora tan birikmalari esa millat, elat, xalq so‘zлari o‘rnida qo‘llangan. Shoir bir she’rida:

Televizorlardan jilmaymoq nima,

Men she’rlar o‘qidim, ko‘nglingiz to‘lmadi.

Oqshom **oq daladan** bir bog‘lam somon

Keltirgan bolacha nafim bo‘lmadi. (M.Y.)

Oq dala hosil beradigan dehqonning rizq-ruzi, ya’ni ijobiylirk ma’nosida qo‘llanilgan.

Shoira X.Bobomurodova she’rlarida ham oq va qora so‘zlarining uslubiy vazifaga xoslanish holatini kuzatish mumkin:

*Sen meni unutting,*

*Yillar unutmadi.*

*Hadya qildi sochlarimga oq,*

*Manglayimga sendan xotira chizdi,*

*Tinmayin o‘rgatdi yashamojni toq. (X.B.)*

Bunda ham keksaymoq, ulg‘aymoq ma’nolarida qo‘llanib she’rning ma’no kuchini yanada oshirgan. Xotirota aylangan unutib bo‘lmas damlarini unutish lirik qahramon uchun oson emas. U hayot sochlariga oqni hadya etsa-da, sevgisini unutmadi, hamon uning yodi bilan yashamoqda. Bu esa hayot so‘qmoqlarida tinmay kurashib yashashga o‘rgatdi. Ammo u yolg‘izlikda unutolmay yashadi. Bu she’rda ham oq so‘zi keksalik ma’nosida qo‘llangan. Bu kabi misollarni she’riyatdan ko‘plab keltirish mumkin.

Qora rang psixologiyasiga ko‘ra ko‘plab mamlakatlarda o‘lim va motam ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lsa, qadimgi Misrda esa hayot va qayta tug‘ilishni ifodalagan. Shuningdek, tahdid va yovuzlikning ramzi sifatida ham qo‘llanilgan<sup>5</sup>.

**Qora** so‘zi rang ma’nosini ifodalaydi. **Qora qalam, qora ko‘mir, qora kuya** kabi. Lekin matn tarkibida turlicha uslubiy vazifaga xoslanadi: **qora mag‘iz** - shaxsning rangini ifodalash uchun qo‘llanadi, **qora kun** – shaxsning boshiga tushgan ko‘rgulik ma’nosida:

Hajringda yorug‘ kunlarim,

Qaro bo‘ldi, qaro bo‘ldi.

Jabr-u sitamdan bu dilim,

Yaro bo‘ldi, yaro bo‘ldi. (A.Qayum)

<sup>5</sup> Internet manbalar. <https://sinaps.uz//bil./5550/>

**Qora niyat** – shaxsning xususiyatini ifodalaydi: *Nihoyat, sirtmoqni peshonasidan sirg'altirib, boshidan chiqarib yubordi-yu, qora niyatlining sochiga chang soldi....* (A.Qorjovov). Demak, qora so'zi rang ma'nosini ifodalash bilan birga turlicha uslubiy ma'noga ham xoslangan: *Hilolaning ham kuni bitadi. Birovning o'limidan so'ng qoraga bo'yaladigan taqdirlni yaratmasligi lozim edi* (A.Qorjovov). Yoki: *Sizni himoyamizga olsak, sudda qashqirlardek tashlanadigan qora kuchlarni daf qilamiz* (A.Qorjovov). Yozuvchi va shoirlar qora so'zi orqali ham salbiy ham ijobiliy konnotatsiya uchun foydalanadi. Masalan, qora ko'z, qora qosh ijobiliylik uchun qo'llanilsa, quyidagi she'rda esa salbiy konnotatsiya ifodalab kelgan:

*Sarg'aygan rasmi qo'lida,*

*Bir momo o'g'lin yodlar.*

*Yangi qoraxatlaru –*

*Qiruvchi samolyotlar.* (M.Y.)

Bilamizki, qoraxat urushda olamdan o'tgan yoki shaxid ketgan shaxsning oila a'zolariga bildirish maqsadida yoziladigan bildirgi, xat hisoblanadi. Demak, bu yerda yomon xabar ma'nosini ifodalash uchun qora so'zidan foydalanilgan. Chunki ranglar orasida qora rangi qadimdan yomonlik, yovuzlik ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanilib kelinganligi haqida ham ma'lumotlar mavjud: qora kuchlar, qora niyatli, qora kuni kabi. Insonlarning fe'l-atvorlarini ifodalashda ham yozuvchi va shoirlar ranglardan foydalanishadi. Bu esa ranglarning belgi ifodalashidagi o'ziga xos ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

*Orol dengiz, Orol bechora dengiz,*

*Zilol dengiz uvol-ovvora dengiz.*

*Baxti qora, manglayi qora dengiz,*

*Ko'z o'ngimda, ko'z o'ngimda berar jon...* (M.Y.)

Bu she'rda shoир baxtli hayot tushunchasiga antonim bo'lgan baxti qora, manglayi qora kabi birikmalardan foydalangan. Bunda shaxs hayotining yomon tomonlarini ifodalovchi baxti qora, manglayi qora birikmalari orqali quriyotgan orol dengizining ayanchli holatini o'quvchi ko'z o'ngida oson va tez gavdalantirish maqsadida qo'llagan.

Nishon bo'lib ermak o'qlar uchun,

Kim aytdi, men sening ko'changdan o'tdim?

Qalbimni yuz pora holida omon,

Olib baxti qaro kechamdan o'tdim. (X.B.)

Baxti qaro kecha shoira nazdida hijron, ayriliq azobi, barchasi bir umumiyl tushunchani ifodalagan. Shuningdek, “baxti qaro kecha” birikmasi orqali lirik qahramonning ayriliq holatini ifodalash uchun xizmat qilgan.

Demak, qora so‘zi rang-tusni ifodalash bilan birga yomonlik, kulfat, og‘ir holat kabi turlicha uslubiy vazifada ham keladi. Badiiy matnlarda qora so‘zining belgi ifodalash xususiyatidan salbiy ma’noda qo‘llanish holati ko‘proq uchraydi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qaro – qora tusdagi, qora ma’nosida ifodalanishi aytilgan holda, bu so‘zning 17 xil ma’noda qo‘llanilishi badiiy matnlardan olingan misollar asosida berilgan<sup>6</sup>. 1.Rang-tusi mavjud ranglarning barchasi, to‘q; 2. Is, qurum bosgan, qoraygan yoki oqlanmagan joy; 3.Shaxmatda oqqa zid donalar va shu donalar bilan o‘ynovchi tomon; 4. Oq bo‘lmagan, odmi kiyim, yoki mato; 5. Tunda, tumanda yoki uzoqdan g‘ira-shira ko‘ringan sharpa, ko‘lanka kabi. Bularidan tashqari; 1. Mo‘ljalga olingan yoki olinadigan narsa, nishon; mo‘ljal ko‘chma ma’noda: 1.dastlabki, xomaki; 2.O‘qimagan, savodsiz; 3.Maxsus malaka, hunar talab qilmaydigan qo‘l kuchi kabi ma’nolarda qo‘llanilishi berilgan.

**Qaro/qora** so‘zi she’riyatda insonlar xususiyatini ifodalash bilan birga baxtsizlik, tolesizlik, peshonaga bitilgan qismat ma’nolarida ham qo‘llanilgan:

O‘tinchlар to‘la nigohlar aro,

Yashamoq qismati bitilgan Sizga.

Kimning ko‘ngli, kimning toleyi qaro,

Kimningdir hayoti tushmagan izga.(X.B.)

Armonlar og‘ushida qolgan lirik qahramon yordan o‘kingan, uni shu kuya solganini qora tunga qiyos qilgan. Dunyoda kimningdir ko‘ngli qaro (inson xususiyati) ekanligini, yana kimningdir baxti (toleyida yozilgan), qismati qaro ekanligini ifodalashda toleyi qaro birikmasidan o‘rinli foydalangan:

Mayli, sen qaytarib aytma bu so‘zni,

Ezilib-ezilib yomg ‘ir yoqqan qaro tun.

Yog‘ilmasa mening chanqoq nigohim,

Ko‘zlarining aytsinlar intizor va xun. (X.B.)

Bunda yomg‘ir tinmay yog‘adigan kunni yordan aziyat chekkan lirik qahramon holatiga uyg‘unlashtirib qora tun birikmasi oqrali ifodalab berilgan.

Shoira bir she’rida qora tunning oq bo‘lishini, uni quchoqlashini juda-juda istagan va umid qilgan edi, afsus, bunday bo‘lib chiqmadi:

<sup>6</sup>. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Москва, 1981 йил 2 том 556-бет.

Qora tun oq bo‘lib quchoqlamadi,  
Pichog‘ing hijronni pichoqlamadi.  
Boshimni ming marta ursam ham toshga,  
Panoh topolmadim ko‘ksingdan boshqa.(X.B.)

Bunday holatni ifodalashda ham lirik qahramon qora tun birikmasidan o‘rinli foydalana olgan.

O‘zbek she’riyatida belgi bildiruvchi so‘zlardan ijobiy va salbiy konnotatsiya uchun foydalanilgan o‘rnlarni ko‘plab uchratish mumkin. Masalan, shoir Usmon Azimning “Grafika” she’rida oq va qora so‘zlarining uslubiy vazifasidan o‘rinli foydalangan:

Ko‘zing qaro sening, qoshlaring qaro,  
Yuzlaring oq sening, kulishlaring oq.  
Qo‘lingdagi ta’na toshlaring qaro,  
Menga g‘amgin boqib turishlaring oq.  
Unutishing – qaro, hijroning qaro,  
Sog‘inching oppoqdir, xatlarining oppoq.  
Qarodir yurganing o‘ch-mehr aro,  
Menga tashlab ketgan dardlaring – oppoq.  
Shommi, yo sahami – vaqtimdir qaro,  
Sen deb to‘kayotgan yoshlarim oppoq.  
Sening ham, mening ham baxtimdir qaro,  
O‘ttiz to‘rt yoshingda sochlaring oppoq.  
Ishon, yurak oqdir, qarodir taqdir,  
Oq-qaro bo‘yoqlar bizning bog‘larda...  
Men milyon bo‘yoqni bilardim, axir,  
Ikkimiz baxtiyor bo‘lgan chog‘larda.

Shoirning “Grafika” she’rida berilgan oq va qora so‘zleri konnotativ ma’noga asoslangan. Masalan, birinchi misradagi ko‘z va qoshlarning qaroligi ijobiy ma’noda, ya’ni chiroyli so‘zi o‘rnida qo‘llanilgan bo‘lsa, uchinchi misradagi tana-toshlarning qaroligi salbiy konnotatsiyaga asoslangan. Bunda shoirga mashuqaning aytgan yomon so‘zlar, doshnom so‘zlar nazarda tutilgan. Lirik qahramon davom etib yorining g‘amgin boqishlarini oqqa( ko‘ngil talpinishi ma’nosida), ammo va’da berib unutishini qaroga o‘xhatgan. Bunda oq va qora leksemalari antonimlik hodisasi uchun xizmat qilgan. Biroq lirik qahramon yorning sog‘inchini va yozgan xatlarini oqlikka o‘xhatgan bo‘lsa, undan o‘ch olish payida yurishini qaroga o‘xhatadi.

Shoir keyingi misralarda yorning qoldirgan dardini oppoq desa ( u bilan o’tgan shirin damlarni eslash), yori uchun chekayotgan azoblarini, uni qumsashini, sog‘inchini, ketgan vaqtini qaroga o‘xshatadi. Biroq shoir yor uchun chekkan azoblarini ham to‘kkan ko‘z yoshlarini ham yaxshilikka yo‘yadi va “Sen deb to‘kayotgan yoshlarim oppoq” deydi. Ishq azoblari yorni ham mashuqani ham baxtli qilolmadi, shuning uchun ham “Sening ham, mening ham baxtimdir qaro” desa-da, o‘ttiz to‘rt yoshida uni deb sochlari oppoq ekanligiga ishora qilgan bo‘lsa, lirik qahramon ular baxtiyor chog‘larida milyon bo‘yoqni bilardi ammo ularning bog‘larida faqat oq-qora bo‘yoqlargina borligi, bu ular yaratga taqdir bo‘yoqlari ekanligi ta’kidlanadi. Turmush, yashash tarzimiz har doim shoir aytmoqchi bo‘lgan kabi oq va qora bo‘yoqlardan iboratdir. Bu she’rda rang bildiruvchi oq va qora leksemalari ijobiy va salbiy konnotatsiyaga asoslangan holda uslubiy vazifaga xoslangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, predmet belgisini ifodalovchi so‘zlar badiiy matn tarkibida turlicha uslubiy vazifaga xoslanib keladi. Chunki oq va qora leksemalar belgi xususiyatidan tashqari turlicha uslubiy vazifa ifodalaydi. She’riyatda esa tasvirni aniq ifodalashda, lirik qahramon aytmoqchi bo‘lgan fikrni yoritishda uslubiy vazifa sifatida qo‘llaniladi. She’riyatda turlicha uslubiy vazifada qo‘llaniladigan belgi bildiruvchi so‘zlarining ma’no qirralarini anglash esa she’r mazmunini to‘laqonli bilish, tushunish imkoniyatini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Э.Киличев. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1992.
2. М.Йўлдошев. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, Фан, 2007.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва, 1981, 2 том 556-бет.
4. Eva Heller(2000), Psychologie de la souleut -effets ets symboliques, pp.130-46.
5. Internet manbalar. <https://sinaps.uz//bil./5550/>
6. Миртожиев М. Ўзбек тили семосиологияси. “Mumtoz so‘z”. –Тошкент, 2010.
7. Ҳожиев А. Семосиология// Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент, 1981.
8. Ҳакимова М. Семасиология. –Тошкент, 2008, 100-б.
9. Jiyanova N. O‘zbek tilining amaliy uslubiyati. –Toshkent, 2018.
10. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
11. <https://sinaps.uz/bil./5550/>